



MIRZAOBOD TUMANINING IQLIMI VA ICHKI SUVLARI

BOBOMURATOVA MATLUBA RAHMONQULOVNA

*Sirdayo viloyati Mirzaobod tuman Ixtisoslashgan maktabinig
oliy toifali geografiya fan o'qituvchisu*

Anatatsiya: *Mirzaobod tumani qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan agrar tumanlardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham yer ushbu tuman iqtisodiyoti uchun juda muhim hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi uchun tuproqlarning holatini nazorat qilish, melliorativ tadbirlarni amalga oshirish doimiy amalga oshirilaigan tadbirlar hsoblanadi. Bunday tadbirlar tumanda doimiy amalga oshirilishiga qaramasdan tuman hududida sho'rxoklar mavjud, tuproqlarning sho'rlanishi muttasil davom etmoqda. Ushbu tadqiqotda ko'rib chiqiladigan asosiy masalalardan biri ham Mirzaobod tumanining tuproqlarining melliorativ xolatidir.*

Kalit so'zlar: *Mirzaobod, relyef, tabiat, iqlim, ichku suvlar, tuproq, o'simlik, hayvonot, sho'rxok, sho'rlanish*

O'zbekiston hududi janubiy kengliklarda joylashganligidan Quyoshdan katta energiya oladi. Shuning uchun havo haroratining ko'rsatgichlari ancha yuqori. Yoz juda issiq, uzoq davom etadi. Mirzaobod iqlimi kontinental bo'lib, qishi sovuq, yozi juda issiq va qurg'oqchil. Tumanga shimoldan sovuq va quruq, g'arbdan nam havo massalari bemalol kirib keladi. Yozda esa Quyosh nuri ancha tik tushadi (730 ga etadi). Quyoshning yilik yalpi radiatsiyasi 150-155 kkal/sm² ga teng. Tumanda havo harorati yer yuzasinnig tuzilishi, shimol va shimoli-g'arbgga ochiqligi, o'zlashtirilgan va sug'orilmaydigan hududlarning almashinib kelishi, suv tarmoqlari va irrigatsiya-melioratsiya sistemalarining mavjudligi tufayli bir xil emas [3.102-b.]. Tuman ob-havosi keskin o'zgaruvchan va quruq. Yillik o'rtacha temperaturasi 14°. Yanvarning o'rtacha temperaturasi shimolida -6°, janubida -2°. Qishda havo tez soviydi va temperatura -30° gacha (Gulistonda —35°) pasayadi. Ba'zan, qish o'rtalarida havo



birdaniga isib, keyin sovib ketadi. Kech ko‘klamda va erta kuzda ham qora sovuq tushib o‘simlikning o‘shish davrini qisqartiradi. Yozi quruq va issiq. Iyulning o‘rtacha temperaturasi 27-29°. Yozda temperatura 32-45° gacha ko‘tariladi. Ko‘pincha issiq shamol (garmsel) tuproqni quritadi va o‘simliklar rivojlanishiga yomon ta’sir qiladi. Vegetatsiya davri 218 kun. Yillik yogin 180-220 mm, asosan, qishda yog‘adi. Yozda kuchli bug‘lanish sababli yer osti suvlari yuza maydonlarning tuprog‘ini sho‘r bosadi.

Noyabrdan martgacha tez- tez esib turadigan “Bekobod shamoli” tezligi 20-25 m/sek. (Boyovut tumanida 40 m/sek.)ga yetadi. Bahorda esadigan bu xildagi shamol unib chiqayotgan g‘o‘zalarni ba’zan nobud qiladi. Keyingi yillarda ixota daraxtzorlari barpo qilindi. Mirzaobodda sovuqsiz davr yil davomidagi o‘simliklar uchun foydali harorat yig‘indisi 4500- 50300 ni tashkil etadi. Qishda sovuq havo shimolda tabiiy to‘siq bo‘lmaganligi uchun tuman hududiga bemalol kirib keladi. Bu havo Turkiston tizmasidan oshib o‘tolmay, Mirzacho‘lda to‘planib qoladi, natijada qishda havo harorati juda pasayib ketadi. Tumanda manfiy haroratlar yig‘indisi -1070 –2330. Mirzaobodda yog‘in kam, yiliga 200-300 mm ga teng. Lekin Mrzaobod joylashgan Mirzacho‘l okrugining tog‘lari tomon yog‘in miqdori ortib boradi. tumanda yog‘inning ko‘p qismi (28-35 %) qish va bahor oylariga (40 %) to‘g‘ri keladi, tog‘larda qor ko‘p yog‘adi, uning qalinligi 20-30 sm ga, tekislikda esa 6-15 sm ga teng. Mirzaobod tumanida nam yetishmaydi. Mumkin bo‘lgan bug‘lanish miqdori 1500 mm ga teng bo‘lib yillik yog‘in miqdoriga nisbatan 5-6 hissa ko‘p. Mirzaobodda shamol ancha kuchli bo‘ladi. Shimoli-g‘arbida ko‘proq shimoldan keladigan shamollar esadi. Chordarada bo‘yida esgan shamollarning 43% i shimoliy shamollarga to‘g‘ri keladi. Tumanning janubi-sharqi uchun qishki kuchli janubi-sharqiy shamollar xosdir. Mirzaobod uchun xos bo‘lgan mahalliy shamol Bekobod shamolidir. U Farg‘ona vodiysidan ‘Xo‘jand darvozasi‘ orqali Mirzacho‘l tekisligi tomon esadi. Bekobod shamoli asosan qishda, ya’ni “darvoza”dan g‘arbda siklon, sharqda antisiklon bo‘lganda kuchli esadi va shamol tezligi 30-40 m/sek gacha yetadi. Yozda shamolning



tezligi 15-20 m/sek. dan oshmaydi. Mirzaobodda yozda juda issiq va quruq garemshel shamoli esadi. U esganda havoga chang ko'tariladi, havo harorati 400 dan ortib ketadi, tuproq quriydi, ekinlar va daraxtlar sug'orilmasa quriydi. Bahorgi kechki sovuqlar, qishda havo haroratining keskin pasayib ketishi, kuchli shamollar tuman iqlimi uchun salbiy holatlardir.

Ichki suvlar hudud tabiat unsurlariga, hususan iqlimiga, rel'efiga, geologik tuzulishi, o'simlik qoplamiga bog'liq holda tarkib topadi. [7.102 bet]

Mirzaobod tuman hududida yirik suv oqimi (daryo) shakllanmaydi. Sirdaryoning Farg'ona vodiysining Xo'jand yo'lagidan chiqaverishda oqimi tez va ostonali, qirg'oqlari tik. Xuddi shu yo'lak og'zida Farhod gidrouzeli 114 barpo etilgan. Mirzaobodga suv keltiradigan kanallar ana shu yerdan boshlanadi. Yangi yerlarni sug'orish uchun suv beradigan uzunligi 126 km bo'lgan Janubiy Mirzacho'l kanalining ahamiyati katta. Janubiy Mirzacho'l kanali bosh qismida sekundiga 300 m³ suv o'tkazishi mumkin. oqar suvlar – soylar ham ko'p. Ularning suv sarfi 0,02 dan to 0,60 m³ /sek gacha o'zgarib turadi[2. 107-122-b.].

1940-1941-yillarda Mirzacho'lda yangi yerlar o'zlashtirilishi munosabati bilan kanalning bosh inshooti rekonstruksiya qilinib, suv o'tkazish qobiliyati 230 m³/sek ga yetkazildi va kanal 14,5 km uzaytirildi, 2- va Z-To'qayli tarmoqlari, 64 mayda shoxobcha va 2 ta yirik tarmoq - O'ng tarmoq va Chap tarmoq (Malik tarmog'i) chiqarildi. 1945 yilda kanal Farhod GESning tashlama kanaliga ulandi. Keyingi yillarda kanal uzaytirildi va suv o'tkazish imkoniyati oshirildi. 1972- yildan kanalda xo'jaliklararo kanallarga suv taqsimlab berish tele va avtomatik sistemalari ishlaydi. 1996 yil iyulidan hozirgi nom bilan ataladi (1938-1997- yillarda S.M.Kirov nomida bo'lgan). 2001 yilda kanaldan 230 ming ga dan ko'proq maydon sug'orildi (O'zbekistonda 100 ming ga; Qozog'istonda 130 ming ga dan ortiq Sultonhovuz - Mirzacho'ldagi oqmas ko'l. Sirdaryoning chap sohilida. Daryoning ko'hna qayiri



(terrasasi)da joylashgan, yarimoy shaklida. Uning sharqiy sohili ancha yotiq va qayirga asta-sekin tutashib ketadi, qolgan sohillari esa lyosdan iborat, nisbatan baland (balandligi 20 m dan ortiq). Koʻlning uzunligi 5 km, eni 1-2 km, chuqurligi oʻrtacha 1-3 m. Sirdaryoning qad. qoldiq oʻzani. Koʻl atrofidan sizib keladigan shoʻr yer osti suvi va partov suv hisobiga toʻyinadi. Bahor va yozda toʻlib, kuzda ancha sayozlanadi. Suv shoʻrroq, 1 l suvda 5-8 g tuz bor (asosan, gidrokarbonatsulfat tuzlari); baʼzan suv kam boʻlgan vaqtlarda kuchli bugʻlanish natijasida suvda xlorid tuzlari toʻplanadi. Shuning uchun ham koʻl qirgʻoqlari botqoqli shoʻrxokdan iborat. Yuzasi qamish va qoʻgʻalar bilan qoplangan. Koʻlda ondatra va nutriya boqiladi

[6. 22-b.]. Sardoba suv ombori. Bundan oʻn yil muqaddam, yaʼni 2010-yilda Janubiy Mirzachoʻl kanalining markaziy tarmogʻi oqib oʻtgan hududda yirik bir suv ombori qurilishi boshlangan edi. Ushbu suv ombor Sardoba suv ombori boʻlib, respublikamiz tekislik hududlaridagi yirik suv omborlardan biri hisoblanadi. Sardoba suv omborida qurilish ishlari 2018-yili yakunlandi. Suv ombor Sardoba, Xovos va Mirzaobod tumanlari hududida joylashgan boʻlib, Sirdaryo hamda Jizzax viloyatlari hududini suv bilan taʼminlaydi. Suv omboridan xalq xoʻjaligida foydalanish esa gʻoyat muhim ahamiyatga ega. Zero, Prezidentimiz shaxsan oʻzlari boshchiligida 2010-yil qurilishi boshlangan ushbu suv ombor hududiga tashrif buyurar ekanlar: ‘Koʻp tarmoqli fermer xoʻjaliklarini rivojlantirmoqdamiz, odamlar takroriy ekin ekib, qoʻshimcha daromad topsin. Sardoba suv ombori hududdagi dehqon va fermerlarga bu borada katta imkoniyatlar yaratadi’, deb taʼkidladilar. Birgina suv ombori qurilishi bu yerda kelgusida kichik bir gidroelektrostansiya qurish imkonini ham beradi. Xususan, mamlakatimiz Prezidentining 2017-yil 2-maydagi PQ – 2947-sonli qarori bilan tasdiqlangan [1-lex.uz] 2017-2021 yillarda gidroenergetikani yanada rivojlantirish choratadbirlari dasturi fikrimizning yorqin dalilidir. Shu asosda Prezidentimizning 2017-yil 18-mayda “Oʻzbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish toʻgʻrisida” farmonining [1-lex.uz]. imzolanganligi Oʻzbekiston gidroenergetika



sohasidagi 36ta gidroelektrostansiyalarni chuqur modernizatsiya va rekonstruksiyadan o'tkazilishini ta'minlaydi.

Mirzaobod tumanida yer osti suvlari turli chuqurlikda joylashgan, sho'rli ham har xil. Ular yog'inlar, daryolar, kanallar, ariqlar suvlarining yerga singishidan paydo bo'ladi va tog' oldi tekisliklaridan, Sirdaryo o'zani tomondan oqib keladi. Yer osti suvlarining to'yinishida sug'oriladigan maydonlardan (38 %) va kanallardan sizilgan suvlarning (38 %) hissasi katta (yiliga 1,9 mlrd m³). Yer yuzasiga yaqin joylashgan sho'r grunt suvlarining bir qismi (yer osti suvi sarf balansida 45,2 m/sek yoki 71 %) bug'lanib, tuproqning sho'rlanishiga sabab bo'ladi. Okrugning tekislik qismi yer yuzasi tekis bo'lganidan grunt suvlari yaxshi oqmaydi, sathi ko'tariladi. Suv sathining ko'tarilishida grunt suvi zahirasing yiliga o'rtacha 16,6 m/sek ga ko'payotganligi ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi o'zlashtirilgan yerlarda grunt suvining sathi har yili 1-2 m ga ko'tarilib borishi tuproqning sho'rlanishiga yordam beradi. Chordara suv omborining qurilishi Qizilqumga, Sirdaryo vodiysiga tomon grunt suvi oqimini kamaytirdi. Bularning hammasi tumanda grunt suvi sathini ko'tarilishini yanada tezlashtirdi. Hozirgi vaqtda Mirzaobodda grunt suvlari asosan 1-10 m chuqurlikda joylashgan, sho'rlanganlik darajasi har xil 1 g/l dan 20 g/l gacha boradi [2. 107-122-b.]. Suv juda ko'p sariflanadi va xuddi shu vaqtda o'simlikka namlik-etishmaydi [3.205-bet]. Yer osti suvlarining harakati juda sustligi natijasida bu yerda ular asosan minerallasgan. Uning hududi Toshkent oldi artezian havzasining janubiy va janubi-sharqiy qismlarini egallaydi. Yer osti suvlari, ular orasida ayniqsa grunt suvlari yer yuzasiga yaqin bo'lganligidan geotizimlar, ya'ni landshaftlarning shakllanishi va rivojlanishida ta'siri katta. 500-1000 m chuqurlikda paleozoy zamini joylashgan. Uning ustini esa oligotsen-golotsen davrining qalin yotqiziqlari egallagan bo'lib, bir qancha gorizontal hosil qilib joylashgandir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-maydagi 2017 — 2021-yillarda gidroenergetikani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risidagi <https://lex.uz/m/acts/-3210102>
2. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1996.
3. Хасанов И.А., Гуломов.П.Н. Ўзбекистон табиий географияси (1- қисм). – Тошкент, 2006.
4. У.Тожиев, Х.Намозов, Ш.Нафетдинов, К.Умаров. Ўзбекистон тупроқлари. Т- 2004 205-бет
5. Хасанов И.А., Гуломов.П.Н. Ўзбекистон табиий географияси (2- қисм). – Тошкент, 2006.
6. Мўминов А ва бошқалар. Ўзбекистон табиий географияси.–Т.: “Ўқитувчи”, 1984.
7. П.Баратов, М.Маматқулов, А.Рафиқов. Ўрта осий табиий географияси Т- 2002